

RASMIY-IDORAVIY VA PUBLITSISTIK USLUBLARNING FUNKSIONAL-LINGVISTIK XUSUSIYATLARI HAMDA ULARNING ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYADAGI O'RNINI

Matyoqubova Laylo,

Samarqand davlat chet tillar instituti Sharq tillari fakulteti
O'zbek tili, jurnalistika va kompyuter lingvistikasi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola rasmiy-idoraviy hamda publitsistik uslublarning funksional-lingvistik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish va ularning zamonaviy kommunikatsiyadagi pragmatik o'rnini aniqlashni maqsad qiladi. Tadqiqot metodologiyasi korpusga tayangan funksional stilistika, diskurs tahlili va janr-pragmatik yondashuv uyg'unligiga asoslandi: normativ hujjatlar, tashkilot yozishmalari, ommaviy axborot matnlari hamda raqamli media xabarlarini tanlab olinib, leksik-grammatik markerlar, sintaktik modellashuv va adresatga yo'naltirilgan strategiyalar kodlandi. Ilmiy yangilik shundaki, rasmiylik va publitsistiklikning kesishish zonasi zamonaviy platformalardagi "gibrid" matnlar misolida tizimli ko'rsatildi, standartlashuv va ekspressivlik o'rtasidagi muvozanatni belgilovchi indikatorlar taklif qilindi. Natijalar amaliy jihatdan hujjatchilik madaniyati, institutsional kommunikatsiya va media matn tahriri uchun tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: rasmiy-idoraviy uslub; publitsistik uslub; funksional stilistika; diskurs tahlili; janr pragmatikasi; standartlashuv; ekspressivlik.

Аннотация. Настоящая статья направлена на сопоставительный анализ функционально-лингвистических характеристик официально-делового и публицистического стилей и на определение их прагматической роли в современной коммуникации. Методология исследования опирается на корпусно ориентированную функциональную стилистику, дискурс-анализ и жанрово-прагматический подход: отобраны нормативные документы, служебная переписка, тексты массовой информации и сообщения цифровых платформ; далее были закодированы лексико-грамматические маркеры, синтаксические модели и стратегии адресатности. Научная новизна заключается в системном описании зоны пересечения официальности и публицистичности на материале современных "гибридных" текстов, а также в предложении индикаторов, фиксирующих баланс между стандартизацией и экспрессивностью. Полученные результаты имеют прикладное значение для культуры документооборота, институциональной коммуникации и редакторской практики в медиасреде.

Ключевые слова: официально-деловой стиль; публицистический стиль; функциональная стилистика; дискурс-анализ; жанровая прагматика; стандартизация; экспрессивность.

Abstract. This article aims to provide a comparative analysis of the functional and linguistic properties of official-administrative and publicistic styles and to clarify their pragmatic roles in contemporary communication. The methodology integrates corpus-informed functional stylistics, discourse analysis, and genre-pragmatic profiling. A dataset of normative documents, institutional correspondence, mass media texts, and digital platform messages was compiled; lexical-grammatical markers, syntactic patterning, and audience-oriented strategies were coded and quantified. The main novelty lies in a systematic account of the overlap zone between officialness and publicistic expressiveness, demonstrated through modern hybrid texts, and in proposing indicators that capture the balance between standardization and expressivity across channels. The findings support applied recommendations for document drafting culture, institutional communication, and media editing practices in rapidly changing multimodal environments.

Keywords: official-administrative style; publicistic style; functional stylistics; discourse analysis; genre pragmatics; standardization; expressivity.

Kirish. Rasmiy-idoraviy va publitsistik uslublar til tizimining ijtimoiy funksiyalashuvida ikki qutb sifatida qaraladi: birinchisi institutsional tartibga solish, huquqiy aniqlik va boshqaruv samaradorligini ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchisi ommaviy auditoriyani xabardor qilish, baholash va ishontirish orqali jamoatchilik fikrini shakllantirishga yo'naladi. Biroq zamonaviy kommunikatsiya, ayniqsa raqamli platformalar ta'sirida, bu ikki uslub o'rtasidagi chegaralarni tobora shaffoflashtirmoqda: davlat xizmatlari portallari, tashkilotlarning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari, press-reliz va brifing matnlari, shuningdek, onlayn yangiliklar sarlavhalari ko'pincha rasmiy me'yoriylik bilan publitsistik ta'sirchanlikni bir matn doirasida birlashtiradi. Shu sababli mazkur uslublarning funksional-lingvistik indikatorlarini qayta ko'rib chiqish, ularning kommunikativ vazifalari va adresat modeli qanday o'zgarayotganini tahlil qilish dolzarbdir.

Adabiyotlar tahlili. Mavjud tadqiqotlarda funksional uslublar, jumladan, rasmiy va publitsistik nutqning normativ belgilari, janr xususiyatlari hamda pragmatik yo'nalganligi izchil yoritilgan bo'lsa-da, ko'pincha tahlil klassik matnlar bilan chegaralanadi yoki "gibridlashuv" jarayoni fragmentar misollar bilan tasdiqlanadi [2]. Xalqaro stilistika va diskursshunoslikda institutsional diskursning mediatizatsiyasi, sarlavhalarning klikbeyt tabiatiga yaqinlashuvi, auditoriya segmentatsiyasi kabi omillar uslubiy transformatsiyalarning asosiy drayverlari sifatida talqin qilinadi, biroq bularni o'zbek til materialida sistemali ko'rsatish hamon yetarli darajada emas [4]. Rasmiy-idoraviy uslubning aniqlik va standartlashuv talabi publitsistik uslubning baholovchan leksikasi hamda ekspressiv sintaksisi bilan to'qnash kelganda qanday kompromisslar yuzaga chiqishi, til birliklarining tanlanishi va joylashuvi qanday pragmatik natija berishi masalasi ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhimdir. Ushbu maqolaning maqsadi rasmiy-idoraviy va publitsistik uslublarning funksional-lingvistik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning zamonaviy kommunikatsiyada tutgan o'rnini matn turlari kesimida aniqlash hamda kesishish zonasi uchun tekshiruvga yaroqli indikatorlar tizimini taklif etishdir. Vazifalar sifatida rasmiy-idoraviy uslubning normativ belgilari va publitsistik uslubning ta'sirchanlik mexanizmlarini parametrlashtirish, korpus materialida ularning leksik-grammatik va sintaktik ko'rsatkichlarini ajratish, raqamli muhitda kuzatiladigan gibrid matnlarning diskurs xususiyatlarini tavsiflash ko'zda tutiladi. Ilmiy yangilik rasmiylik va publitsistiklikning "aralash" konfiguratsiyalarini janr-pragmatik mezonlar orqali izohlash va amaliy tahrir hamda hujjatchilik uchun me'yoriy muvozanat mezonlarini asoslashdan iborat. Amaliy ahamiyat esa tashkilotlararo yozishmalar, ommaviy axborot xabarlari va jamoatchilikka yo'naltirilgan rasmiy e'lonlar tilini standartga mos, ayni paytda adresatga tushunarli va ta'sirchan qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati bilan belgilanadi [3], [6].

Tadqiqot materiali sifatida 2020–2025 yillar oralig‘ida ommaga ochiq manbalardan olingan 240 ta matn birligi tanlandi: rasmiy-idoraviy segment uchun normativ-huquqiy hujjatlar, idoraviy buyruq va farmoyishlar, xizmat xatlari hamda elektron murojaatlarga javob namunalari; publitsistik segment uchun yangilik xabarlar, tahliliy maqolalar, intervyu va muallif ustunlari; gibrid segment uchun press-revizlar, brifing stenogrammalari, davlat va tashkilot sahifalaridagi e‘lonlar, savol-javob formatidagi postlar kiritildi. Tanlovda janr vakilligi, kanal xilma-xilligi va adresat turi (mutaxassis auditoriya, umumiy auditoriya) muvozanati saqlandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Metodik asos sifatida funksional stilistika doirasida “kommunikativ vazifa, adresat modeli, me‘yoriylik darajasi, ekspressivlik darajasi” parametrlar tizimi qabul qilindi; bu yondashuv rasmiy uslubning standart formulalari va publitsistik uslubning baholash hamda persuaziya vositalarini bir o‘lchamda qiyoslash imkonini beradi [1], [4]. Diskurs tahlili orqali matnning institutsional konteksti, mualliflik pozitsiyasi, legitimlik va ishonchlilikni qurish strategiyalari, shuningdek, “biz” va “siz” kabi shaxs ko‘rsatkichlarining pragmatik yuklamasi kuzatildi [5]. Janr-pragmatik tahlilda har bir matnning kompozitsion modeli, sarlavha va lid funksiyasi, fakt va izoh nisbatlari, normativ talablarni ifodalovchi modal vositalar (majburiyat, ruxsat, taqiq) hamda auditoriyani jalb etuvchi retorik vositalar kodlandi. Leksik-grammatik markerlar sifatida terminologik birliklar, kanselyarizmlar, standart birikmalar, baholovchi sifatlar, intensifikatorlar, sitata va iqtibos konstruktsiyalari, shuningdek, sintaktik jihatdan murakkab qo‘shma gaplar, noma‘lum egali konstruktsiyalar, passiv shakllar, murojaat va undovli segmentlar ajratildi. Kodlash ikki bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda indikatorlar ro‘yxati pilot korpusda aniqlashtirildi, ikkinchi bosqichda to‘liq korpusda chastota va birikish tendensiyalari qayd etildi. Metodologik tanlovning ilmiy asosligi shundaki, u stilistikani faqat til birliklari ro‘yxati sifatida emas, balki kommunikativ vazifa va institutsional sharoit bilan bog‘liq dinamik tizim sifatida talqin qiladi, bu esa raqamli muhitda yuzaga kelayotgan uslubiy siljishlarni izohlashga imkon beradi [2].

Tahlillar va natijalar. Korpus tahlili rasmiy-idoraviy matnlarda standartlashuvning uch darajada namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi: birinchidan, leksik darajada terminologik aniqlik va kanselyarizmga xos birliklarning yuqori ulushi qayd etildi; ikkinchidan, sintaktik darajada murakkab qo‘shma gaplar, aniqlovchi va to‘ldiruvchi zanjirlar, shuningdek, noma‘lum egali yoki passiv konstruktsiyalar ko‘p uchradi; uchinchidan, kompozitsion darajada rekvizitlar, bandlar, normativ formulalar va havola konstruktsiyalari matnning asosiy skeletini tashkil qildi. Rasmiy segmentda modal ma‘nolar asosan majburiyat va tartibga solish yo‘nalishida jamlandi: “belgilansin”, “tasdiqlansin”, “majbur”, “taqiqlanadi”, “amalga oshirilsin” kabi birliklar takroriy ko‘rinishda kuzatildi, shuningdek, vaqt va shartni aniqlovchi komponentlar ko‘pligi sababli semantik aniqlik ortdi.

Publitsistik segmentda esa baholovchi leksika, konnotativ birliklar va auditoriyaga yaqinlashtiruvchi ifodalar yuqori chastotada qayd etildi; sarlavha va lidlarda intensifikatsiya, kontrast va umumlashtirish vositalari ko‘p uchrab, matnning keyingi qismida fakt, izoh va muallif pozitsiyasi qatlamlari almashinib bordi. Sintaktik jihatdan publitsistik matnlarda qisqaroq gaplar, parallelizm, ritorik savollar, iqtibosli konstruktsiyalar va dialogik segmentlar ulushi ortdi; bu hodisa o‘qish tezligini oshirish va ta’sirchanlikni kuchaytirish bilan birga, ba’zan normativ aniqlik hisobiga emotsional-aksiologik talqinni kuchaytirdi.

Gibrid segment natijalari alohida tendensiyani ko‘rsatdi: press-reliz va rasmiy e’lonlarda rekvizit va normativ formulalar saqlangan holda, publitsistik uslubga xos “auditoriyani jalb qilish” signallari qo‘shildi. Bunda ikki xil model ajraldi. Birinchi model “rasmiy skelet, publitsistik qoplama” sifatida namoyon bo‘ldi: matnning asosiy qismi rasmiy bandlar, aniq vaqt va javobgar subyektlar bilan berilib, sarlavha va kirish jumllarida baholovchi sifatlar, ijobiy semantika va umumiy auditoriyaga tushunarli sinonimik izohlar qo‘llandi. Ikkinchi model “publitsistik skelet, rasmiy legitimatsiya” ko‘rinishida bo‘lib, unda asosiy bayon publitsistik ritmda qurildi, biroq muhim tezislar rasmiy hujjatga havola, normativ termin yoki institut nomining ta’kidli keltirilishi bilan mustahkamlandi. Kodlash natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, gibrid matnlarda shaxs ko‘rsatkichlari va murojaat shakllari ko‘payadi: “hurmatli fuqarolar”, “aziz yurtdoshlar”, “e’tiboringizga havola etamiz” kabi birliklar rasmiy-idoraviy uslubning an’anaviy betarafligidan chekinish sifatida qayd etildi, biroq ular ko‘pincha axborotning qabul qilinishini yengillashtiruvchi pragmatik vosita vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, rasmiy segmentda ko‘rsatkichlarning barqarorligi yuqori bo‘lsa, publitsistik segmentda kanalga bog‘liq variativlik kuchliroq ekani kuzatildi: raqamli yangiliklar va qisqa postlarda sarlavha-lid kompaktligi, tezkorlik va selektiv fakt berish tendensiyasi kuchaydi, an’anaviy tahliliy maqolalarda esa izoh va argumentatsiya ulushi ko‘proq saqlanib qoldi.

Olingan natijalar rasmiy-idoraviy uslubning asosiy funksional yadrosi standartlashuv, yuridik va boshqaruv aniqligi hamda mas’uliyatni taqsimlashga xizmat qilishini yana bir bor tasdiqlaydi, biroq zamonaviy kommunikatsiya sharoitida bu yadro “tushunarlilik” va “foydalanuvchi tajribasi” kabi omillar bilan qayta muvozanatlanayotganini ko‘rsatadi. Rasmiy matnning klassik modeli adresatni abstrakt huquq subyekti sifatida qabul qilgan bo‘lsa, raqamli platformalardagi rasmiy e’lonlar adresatni real foydalanuvchi, savol beruvchi va tezkor javob kutuvchi shaxs sifatida model qiladi; shuning uchun rasmiylikning ayrim ko‘rsatkichlari yumshaydi, izohli sinonimlar, qisqa gaplar va murojaat birliklari ortadi. Bu jarayonni “rasmiy diskursning mediatizatsiyasi” doirasida talqin qilish mumkin: institutlar o‘z xabarlarini ommaviy auditoriyaga moslab, publitsistik uslubning ta’sirchan resurslarini cheklangan darajada o‘zlashtiradi [5]. Publitsistik uslub esa, aksincha, ishonchlilik va tekshiriluvchanlik

talablari kuchaygani sayin rasmiy diskursning legitimatsiya mexanizmlaridan foydalanadi: manba ko'rsatish, institut nomini aniq keltirish, terminologik aniqlikni saqlash, ayrim hollarda normativ hujjatga havola berish publitsistik matnning reputatsion kapitalini oshiradi. Demak, kesishish zonasi bir uslubning "boshqasiga o'xshab qolishi" emas, balki turli kommunikativ vazifalar to'qnashgan nuqtada yangi janr-amaliy formatlarning paydo bo'lishidir.

Natijalarning nazariy ahamiyati shundaki, uslubiy farqlash faqat leksik ro'yxatlar bilan emas, balki "me'yoriylik va ekspressivlik" o'qlari bo'yicha gradatsion modelda ifodalanishi maqsadga muvofiq. Rasmiy-idoraviy matnda ekspressivlikning keskin ko'payishi huquqiy talqinning noaniqlashuviga olib kelishi mumkin, publitsistik matnda esa haddan tashqari rasmiylashuv o'quvchi e'tiborini susaytiradi va muloqotning dialogik tabiatini pasaytiradi. Shu nuqtayi nazardan, taklif etilgan indikatorlar tizimi amaliy tahrir uchun ham qulay: rasmiy segmentda modal fe'llar va standart formulalar ulushi, publitsistik segmentda baholovchi leksika va dialogik sintaksis ulushi, gibrid segmentda esa rekvizitlarning saqlanishi bilan birga sarlavha-lidning auditoriyaga yo'naltirilganligi asosiy signal sifatida xizmat qiladi. Amaliy jihatdan bu yondashuv press-reliz, jamoatchilikka yo'naltirilgan e'lon va xizmat ko'rsatish xabarlarini tuzishda "minimal rasmiy skelet" va "maksimal tushunarlilik" muvozanatini topishga yordam beradi; ayniqsa, ko'rsatma va tartiblarni bayon etishda terminologik aniqlikni saqlagan holda, ortiqcha kanselyarizmdan qochish, sintaktik zanjirlarni qisqartirish va izohli segmentlarni qo'llash samarali ekani ko'rinadi [1], [6]. Tadqiqot cheklovlari sifatida korpusning vaqt oralig'i va ochiq manbalarga bog'liqligi, shuningdek, multimodal komponentlar (grafika, dizayn, video) to'liq qamrab olinmaganini qayd etish zarur; kelajakda uslubiy ta'sirchanlikni faqat matn emas, balki multimodal belgilar majmui sifatida o'rganish, shuningdek, qabul qiluvchi auditoriya tajribasi asosida eksperimental tekshiruvlar o'tkazish maqsadga muvofiq [2].

Xulosa. Tadqiqot rasmiy-idoraviy va publitsistik uslublarning zamonaviy kommunikatsiyada qat'iy ajralgan tizimlar emas, balki turli kanallar va vazifalar ta'sirida o'zaro yaqinlashuvchi hamda ayrim nuqtalarda gibridlashuvchi funksional ko'rinishlarga ega ekanini ko'rsatdi. Rasmiy-idoraviy uslubning tayanch belgilari terminologik aniqlik, modal tartibga solish, sintaktik murakkablik va kompozitsion standartlashuv orqali namoyon bo'lishi, publitsistik uslubning tayanch belgilari esa baholovchanlik, auditoriyaga yo'naltirilganlik, dialogik sintaksis va persuaziv kompozitsiya orqali yuzaga chiqishi aniqlandi. Gibrid matnlarda rasmiy legitimatsiya va publitsistik tushunarlilik birikib, "rasmiy skelet, publitsistik qoplama" hamda "publitsistik skelet, rasmiy legitimatsiya" modellarini hosil qilishi kuzatildi. Taklif etilgan indikatorlar tizimi uslublarni matnlar kesimida izchil farqlash, shuningdek, jamoatchilikka yo'naltirilgan

rasmiy xabarlarni tahrir qilishda aniqlik va ta'sirchanlik muvozanatini saqlash uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qo'ng'urov R. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent, O'qituvchi, 2010. 320 b.
2. Qilichev E. Matn lingvistikasi. Toshkent, Akademya, 2018. 240 b.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent, Fan, 2017. 360 b.
4. Fairclough N. Media Discourse. London, Edward Arnold, 1995. 214 p.
5. Wodak R., Meyer M. Methods of Critical Discourse Studies. London, SAGE Publications, 2016. 200 p.
6. Кожина М. Н. Стилистика русского языка. Москва, Просвещение, 2008. 224 с.

